

## Umumta'lism məktəbida müləqət

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislarin instituti va Toshkent viloyati O'rta Chirchiq tumani xalq ta'limi bo'limi tasarrufidagi 56-sonli umumta'lism məktəbida ta'lim sifati va o'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish va metodik qo'llab - quvatlash uchun hamkorlikni tashkil etish bo'yicha yo'l xaritasiga asosan "Gidromelioratsiya" fakulteti "Irrigatsiya va melioratsiya" kafedrasi professor-o'qitivchilari dos. S.Kasembetova, ass. G.Axmedjanova va ass. E.Malikov 56-sonli umumta'lism məktəbiga tashrif buyurdilar. Dastavval, məktəb direktori N.Mutalova o'quvchilarga yaratilgan shart - sharoitlar bilan tanishtirdi. "Irrigatsiya va melioratsiya" kafedrasi professor-o'qitivchilari bu yil oliyohoga topshirishga niyat qilgan 11-sinf o'quvchilari bilan müləqət va ochiq dars tashkil etdilar.



Ma'ruzada muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning «Biz o'z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta'lim va tarbiyani rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g'oyamizning asosiy ustunlari bo'lib xizmat qilishi lozim» fikrlarini yana bir bor keltirib o'tdilar. Kafedra dotsenti S.Kasembetova "Irrigatsiya va melioratsiya" kafedrasi qoshida tashkil etilgan "Meliorator" iqtidorli talabalar to'garaklari faoliyati, suv xo'jaligini raqamlashtirish va amaliy texnologiyalar borasida taqdimot qildi.



Shundan so'ng o'quvchilar o'rtasida qiziqarli tanlov tashkil etildi. Tanlov g'oliblariga kafedraning esdalik sovg'alaridan badiy adabiyotlar bilan taqdirlандilar. Müləqət va ochiq darslarda 56-məktəb o'qituvchilari ham faol ishtirok etib, tanlov g'oliblarini baholashda yaqindan ko'mak berdilar. Yuqori saviyada tashkil etilgan müləqət va ochiq darslar so'ngida barcha o'quvchilarni Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislarin institutiga ekskursiyaga taklif qilindi.

**"Irrigatsiya va melioratsiya" kafedrasi mudiri, t.f.n., professor I.Begmatov axboroti**

**TIQXMMI matbuot xizmati**